



## BANKLAR KAPITALLASHUV DARAJASINI OSHIRISH MASALALARI

**Mirzayeva Matluba G`aybulla qizi**

TDIU huzuridagi "O`zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning  
ilmiy asoslari va muammolar" ilmiy tadqiqot markazi

ORCID: 0009-0005-8019-4195

[mirzayevamatluba76@gmail.com](mailto:mirzayevamatluba76@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tijorat banklari kapitallashuvini oshirishning zamonaviy usullarining nazariy va huquqiy asoslari keltirilgan. Respublika bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish, tijorat banklarining kapitallashuv darajasini o`stirish, ularning investitsiyaviy faoliyatini kuchaytirish hamda ichki manbalar hisobidan iqtisodiyotni tarkibiy o`zgartirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan kreditlar hajmlarini ko'paytirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maisadi hisoblanadi. Bunda albatta, banklar kapitallashuvi darajasini ularning ustav kapitalarini o`stirish hisobiga oshirish, aktsiyalarni chiqarish va fond bozorlarida joylashtirish orqali jami kapitalning har yili kamida 20 foiz o'sishini ta'minlash kerak bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** tijorat banklar, kapitallashuv darajasi, resurs baza, kapital, moliyaviy barqarorlik, ustav kapital.

## ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ КАПИТАЛИЗАЦИИ БАНКОВ

**Мирзаева Матлюба Гайбулла кизи**

НИЦ «Научные основы и проблемы развития  
экономики Узбекистана» при ТГЭУ

**Аннотация.** В данной статье представлены теоретико-правовые основы современных методов повышения капитализации коммерческих банков. Повышение финансовой устойчивости банковской системы республики, повышение уровня капитализации коммерческих банков, усиление их инвестиционной деятельности, увеличение объемов кредитов, направляемых на реализацию стратегически важных инвестиционных проектов по структурной трансформации экономики, модернизации производства. В нашей стране осуществляется техническое и технологическое перевооружение за счет внутренних источников. В этом случае необходимо повысить уровень капитализации банков путем увеличения их уставного капитала, путем выпуска акций и размещения их на фондовых рынках, необходимо обеспечить ежегодный рост совокупного капитала не менее чем на 20 процентов.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, ставка капитализации, ресурсная база, депозит, капитал, актив и кредит.

## ISSUES OF INCREASING THE CAPITALIZED LEVEL OF BANKS

**Mirzayeva Matluba Gaybulla kizi**

*Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" at TSUE*

**Abstract.** *This article presents the theoretical and legal basis of modern methods of increasing the capitalization of commercial banks. Increasing the financial stability of the republic's banking system, increasing the level of capitalization of commercial banks, strengthening their investment activities, and increasing the volume of loans directed to the implementation of strategically important investment projects on the structural transformation of the economy, modernization of production, technical and technological re-equipment at the expense of domestic sources is being implemented in our country. is the main ground of reforms. In this case, it is necessary to increase the level of capitalization of banks by increasing their authorized capital, by issuing shares and placing them on the stock markets, it is necessary to ensure an annual growth of the total capital of at least 20 percent.*

**Key words:** *commercial banks, capitalization rate resource base, deposit, capital, asset and loan.*

### **Kirish.**

Tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash mamlakat bank tizimining barqarorligini ta'minlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashish darajasini oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash mamlakat bank tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida e'tirof etilgan (Farmon, 2017).

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Prezidentining 2020 yil 12 maydagi «2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi PF-5992-sonli Farmoni bilan 2025 yilga qadar banklar ustav kapitalining eng kam miqdorini 500 mlrd so'mgacha bosqichma-bosqich oshirish belgilangan (Farmon, 2020).

Ayni vaqtda, respublikamiz tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirish maqsadida echimini topish lozim bo'lgan bir qator masalalar mavjud. Xususan, tijorat banklarining kapitallashuv darajasi sustligi, davlat byujeti mablag'lari hisobidan oxirgi yillarda katta miqdorda mablag'lar yo'naltirilishi, fond bozorida tijorat banklarining emitent xamda investor sifatidagi faol emasligi, o'z mijozlariga etarli darajada sifatli xizmat ko'rsata olmayotganligi, resurslar bazasining zaifligi, bank kapitalining YaIMdagi ulushini pastligi va boshqa shu kabi muammolar mavjud.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Mavjud iqtisodiy adabiyotlarda «Kapital» "kapitallashuv" tushunchalari xorijlik va mahalliy olimlar hamda mutaxassislar tomonidan o'rganilgan va tegishli ta'riflar berilgan.

«Kapital» termini (lotincha capitalis – bosh, asosiy) asosiy mol-mulk ma'nosini anglatadi. Bank tijorat kapitali o'z ichiga ustav kapital, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali hamda taqsimlanmagan foydani oladi. Ko'pgina adabiyotlarda, bank tijorat kapitali bankning o'z mablag'lari tushunchasi bilan tenglashtiriladi.

Ko'pgina iqtisodchilar bank kapitali deganda tijorat kapitalni nazarda tutishadi va regulativ kapitalga kapital etarliligini hisoblashda aniqlanadigan kattalik sifatida qarashadi.

Bank tijorat kapitali mohiyatiga doir yagona yondashuv mavjud bo'lmay iqtisodiy ta'riflar uning u yoki bu jixatlari, funktsiyalarini tavsiflaydi.

Jumladan, rus iqtisodchisi Karobova (2015) bank kapitaliga bankning iqtisodiy mustaqilligi, barqarorligi va ishonchliligini ta'minlovchi, mohiyatiga ko'ra to'liq to'langan element (fond)lar majmui sifatida qaraydi. Haqiqatda bank kapitalining miqdori, uning moliyaviy barqarorligi va mustaqilligini tavsiflaydi. V.P.Ivanovning fikricha esa «Bank kapitali - bir tomondan bozor iqtisodiyoti mahsuli, ikkinchi tomondan esa u taraqqiyotning zaruriy shartidir» (Кисилев, 1997).

Professor Usoskin (2014) bank kapitaliga bank moliyaviy resurslarining muhim va ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraydi. Ko'rinib turibdiki, bu erda kapital bank resurslarining muhim va tarkibiy qismi sifatida qaralishi natijasida uning asosiy vazifalari (himoya, tezkor va tartibga solish) e'tibordan chetda qolgan.

Iqtisodchi olim R.G.Olxova bank kapitalining mohiyatini ochishda «himoya yostig'i» sifatida qaraydi va bank kutilmaganda zarar ko'rsa kapital himoya yostig'i sifatida ko'rilayotgan zarar oqibatlarini engillashtiradi va bankning iqtisodiy jihatdan to'lov qobiliyatini tiklab olish imkoniyatini yaratadi deb hisoblaydi (Ловрушина, 2016).

Professor Omonov (2008) o'zining "Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari" mavzusidagi iqtisod fanlari doktorlik dissertatsiyada tijorat banklarning kapitallashuv darajasiga ta'sir etuvchi omillarni batafsil tasniflab berganlar.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan Abdullaeva va Omonov (2006) bank kapitalining iqtisodiy mazmuniga quyidagicha ta'rif bergan: «Tijorat banklarining kapitali barqaror manba bo'lib, bankning operatsion jarayonida kutilmaganda yuzaga keladigan zararlarni koplash imkonini beruvchi o'ziga xos himoya vositasidir».

Qurbonov (2022) esa o'z ilmiy tadqiqotlarida "Tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash mamlakat bank tizimining barqarorligini ta'minlashning zaruriy sharti" - deb hisoblaydi (Kurbanov, Khudoyberganova, 2018).


### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Maqolani tayyorlashda tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha amaliy ma'lumotlar tahlil qilindi va barcha foydalanilgan ma'lumotlar amaldagi qonun hujjatlari va Markaziy bankning statistik ko'rsatkichlari asosida muallif tomonidan tadqiq qilindi. Maqolada guruhlashtirish, taqqoslash, tizimli yondashuv, va tarkibiy tahlil usullari ko'llanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Respublikamiz amaliyotida yillar davomida tijorat banklari resurs bazasining mustahkamlanib borishi kuzatilmoqda. Bunda albatta, banklarning regulyativ kapitalining o'rni ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Respublikamiz tijorat banklari regulyativ kapitali oxirgi yillarda sezilarli sur'atlarda o'sdi. Bu esa, mamlakatimiz hukumati va Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ustav kapitalini oshirish siyosatini olib borilayotganligi bilan izohlanadi. Umumiy xolda, respublikamiz tijorat banklarining jami kapitali dinamikasini quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin.

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Mamlakatimiz banklari jami kapitali so'nggi besh yilda sezil oshgan. Tijorat banklarning jami kapitali 2019 yilga nisbatan 2023 -yil yakunida 1,9 barobaridan ko'proq o'sib 97079 mlrd.so'mni tashkil etdi. Bu esa tijorat banklar rahbariyatining kapitallashuv darajasiga alohida e'tibor berilayotganligini, bank tizimida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan risklar oqibatida yuzaga keluvchi yo'qotishlarni qoplashga etarli bo'ladigan mablag'lar o'z vaqtida yo'naltirayotganligidan dalolat beradi.



**1-rasm. Respublikamiz tijorat banklar jami kapitali dinamikasi  
(yil oxiriga mlrd.so'mda)**

*Manba: <http://www.cbu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti ma'lumotlari.*

Bizga ma'lumki, 2023 yil 1 sentyabrdan e'tiboran bank ustav kapitalining eng kam miqdori 200 mlrd.so'mni tashkil etishi kerak<sup>16</sup>. Bu bo'yicha qonun loyihasi 2022- yil oktyabrda qabul qilingan va qonun aprelda kuchga kirgan. Ya'ni Markaziy bank "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 13-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, bank ustav kapitalining eng kam miqdori 2023 yil 1 sentyabrdan boshlab ikki yuz milliard so'mni va bosqichma-bosqich 2025 yil 1 yanvardan besh yuz milliard so'mni tashkil etishi lozimligi borasida qat'iy va sobit harakatlarni amalga oshirishini ma'lum qilmoqda. Ammo, hozirgi paytda barcha tijorat banklar ham belgilangan ustav kapitallarining minimal miqdorlarini to'liq shakllantira olgani yo'q. Buni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

**1-jadval**

**Tijorat banklar jami va ustav kapitali miqdori bo'yicha guruhlanishi**

Ko'rsatkichlar nomi	Jami		Shulardan (soni bo'yicha):					
	Banklar soni	Summa (mlrd. so'm)	350 mlrd. so'm-gacha	350 dan 500 mlrd. so'mgacha	500 mlrd. so'mdan 1 trln. so'mgacha	1 trln. so'mdan 2 trln. so'mgacha	2 trln. so'mdan 5 trln. so'mgacha	5 trln. so'm va undan yuqori
<b>01.04.2023 yil holatiga</b>								
Jami kapital	33	82 853	8	4	5	5	5	6
Shundan, ustav kapitali	33	60 243	13	4	3	6	3	4
<b>01.04.2024 yil holatiga</b>								
Jami kapital	35	100 713	6	6	3	6	8	6
Shundan, ustav kapitali	35	70 747	5	10	6	6	4	4

*Manba: <http://www.cbu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti ma'lumotlari.*

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tijorat banklarimizning jami va ustav kapitalini guruhlash natijasida 2024 yil aprel boshiga 6 ta tijorat bankning ustav kapitali belgilangan minimal miqdor 350 mlrd.so'mga etmayapti. Bu esa asosan xususiy banklar xissasiga to'g'ri kelmoqda. Lekin mazkur talablarga javob bermaydigan banklar o'z kapitalini muvofiqlashtirish bo'yicha biron jiddiy harakatni amalga oshirayotgani yo'q. 2024 yil 1 aprel holatiga Madad Invest bank, Hayot bank, Garant bank, Yangi bank, Poytaxt bank va Eron Soderot banklarning

<sup>16</sup> <https://lex.uz/docs/4581969> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti ma'lumotlari.

ustav kapitali qonunchilikda belgilangan me'yorga etmagan<sup>17</sup>. Shulardan Poytaxtbank, Madad invest bank va Eron Soderot banklar kecha tashkil bo'lgan emas, eski banklar.

Bunaqa vaziyatda regulyator hisoblangan Markaziy bank ustav kapitali minimal talablarga javob bermaydigan banklarga boshqa banklarga qo'shilish tavsiya etilishini, aks holda ularning litsenziyasi chaqirib olinilishini ta'kidlagan<sup>18</sup>.

### Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tijorat banklari o'zlarining ustav kapitalini oshirish imkoniyatlarini izlab topishlari kerak. Aks holda, banklar Prezidentimizning 2020 yil 12 maydagi PQ-5992-sonli Farmonni to'liq bajarilmasligiga olib keladi. Bu esa, tijorat banklari faoliyatini davom ettirishini so'roq ostida qoldiradi.

O'zbekiston banklarining depozit bazasi yil boshiga nisbatan 9,8 foizga yoki 23,7 trln so'mga oshdi. Bunda milliy valyutadagi depozit qo'yilmalari 20,5 trln so'mga va xorijiy valyutadagilari esa 3,2 trln so'mga ortgan.

Banklarning depozit bazasidagi xorijiy valyutadagi omonatlar olti oyda 3,2 trln so'mga ortgan. Ushbu turdagi depozitlar hajmi faqatgina 15 ta bankda kamaygan. O'zmilliybankda xorij valyutasidagi omonatlar eng ko'p — 4,1 trln so'mga ortgan bo'lsa, eng katta pasayish Asakabankda (-1,7 trln so'm) va Aziya Alliance bankda (-1,1 trln so'm) kuzatilgan. Foiz nuqtai nazaridan qaralganda eng katta o'sish ANORBANKda kuzatilgan bo'lib, bankning xorijiy valyutadagi depozitari 195 foizga yoki 718,6 mlrd so'mga ko'paydi.

### 2-jadval

#### Xususiy banklarning ko'rsatkichlari bilan quyidagi jadvalda tanishish mumkin

№	Xususiy banklar	Depozit bazasi			Shu jumladan					
		2024 yil boshiga	2024 yil 1-yarim yillik yakunida	O'zgarishi	Milliy valyutda			Xorijiy valyutada		
					2024-yil boshiga	2024 yil 1-yarim yillik yakunida	O'zgarishi	2024-yil boshiga	2024 yil 1-yarim yillik yakunida	O'zgarishi
1	Orient Finans Bank	8 869,2	8 193,8	-675,4	5 257,0	4 262,0	-995,0	3 612,2	3 931,7	319,6
2	Trastbank	6 743,0	7 038,5	295,5	5 009,6	5 340,3	330,7	1 733,4	1 698,2	-35,1
3	Davrbank	2 740,8	2 959,5	218,6	2 529,3	2 760,3	231,1	211,6	199,2	-12,4

Bundan ko'rinadiki, tijorat banklarimiz oz muddat ichida ustav kapitalini miqdorini keskin oshirishlari kerak. Bundan tashqari, tijorat banklari tomonidan chiqariladigan aksiyalarni joylashtirish bilan bog'liq muammolar mavjud. Banklar tomonidan taklif etilayotgan dividendlarning o'rtacha yillik stavkasi banklardagi depozit stavkalari bilan deyarli bir xil, bundan tashqari ular o'zgaruvchan bo'lib, bank faoliyati bilan bog'liq muammolar natijasida dividendlar miqdori kamayib ketishi mumkin. Yana Tijorat banklarning kapitali tarkibida bo'lgan emission daromadlar deyarli sezilmaydigan darajada. Bu holat banklarimiz aksiyalari qimmatbaho qog'ozlar bozorida deyarli nominal bahosi miqdorida sotiladi. Ularning bozor (real) bahosiga ta'sir etuvchi omillar yo'qligicha qolmoqda.

Operativ ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston banklari 2024 yilning yanvar-iyun oylarida 5,5 trln so'm foyda oldi. Bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10 foizga yoki 560 mlrd so'mga kam hisoblanadi. Sof foyda ko'rsatkichi bo'yicha umumiy jadvalda etakchi o'nta bankdan faqat dastlabki ikkitasi — O'zmilliybank va O'zsanoatqurilishbanklar davlatga tegishli banklardir. Jami 19 ta bankning sof foydasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamaygan, 6 ta bank yarim yillikni zarar bilan yakunlagan, jumladan xususiy banklar ham

<sup>17</sup> <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/1675095/> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti ma'lumotlari

<sup>18</sup> <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/1067341/> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti ma'lumotlari





### O'zbekiston xususiy banklarining yarim yillik moliyaviy natijasi (mlrd so'm)

Yuqorida qayd etilgan muammolarni hal qilish maqsadida, fikrimizcha, quyidagi tadbirlarni amalga oshirish kerak:

1. Davlat tomonidan moliyaviy imtiyozlar qo'llash orqali tijorat banklar ayniqsa, xususiy banklar aksiyalarining investitsion jozibadorligini oshirish va shuning asosida banklar ustav kapitalini 2025 yil 1 yanvargacha ustav kapitalining minimal miqdorlarini belgilangan talablar darajasiga keltirilishiga erishish zarur.

2. Tijorat banklari aksiyalarini ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida keng ko'lamda oldi-sotdi qilinishini ta'minlash lozim. Buning uchun avvalo tijorat banklari tomonidan oddiy aksiyalarga to'lanadigan dividendlar darajasini investorlar manfaatiga maqbul keladigan darajaga etkazish lozim. Bunda hukumatning qisqa muddatli obligatsiyalarga to'lanadigan foizlardan asos sifatida foydalanish, investorlarning bank aksiyalariga qilgan qo'yilmalari va ulardan oladigan daromadlariga inflyatsiya darajasi va valyuta kursi ta'sirini hisobga olish zarur. Ko'pgina tijorat banklari ustav kapitalini oshirish maqsadida sof foydani asosiy qismining bir necha yil ketma-ket kapitallashtirishlari ularning to'laydigan dividendlarini kamayishiga olib kelmoqda. Sof foydaning kapitallashtirilishida kapitalni shakllantirish matritsasidan foydalanish va dividendlarning doimiy o'sish tendensiyasini ushlab turish lozim. Aks holda ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida aksiyalarga bo'lgan barqaror talabni yuzaga keltirish va bank aksiyalarining bozor bahosini aniqlash imkoni bo'lmaydi.

3. Tijorat banklar tomonidan joriy yilda olinadigan sof foydasini asosiy qismini ustav kapitalni oshirishga yo'naltirishlari kerak.

Umumiy olganda, tijorat banklar 2025 yilning 1 yanvarigacha ustav kapitalning minimal miqdorlarini belgilangan talablar darajasiga etkazishmasa, o'z faoliyatini to'xtatishi yoki boshqa bankka qo'shilishi mumkin. Buning natijasi albatta, bank tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

#### Adabiyotlar:

Abdullaeva Sh.Z., Omonov A.A. (2006) *Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish*. – T.: «Iqtisod-moliya», 120 b.

Farmon (2017) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami*. – Toshkent, 2017. – № 6. – 32-b.

Farmon (2020) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF- Farmoni, 2020 yil 12 may*

Kurbanov R. B., Khudoyberganova Z. Z. (2018) *Matters of the increasement of private banks' capitalization level //Экономика и бизнес: теория и практика*. – №. 6. – S. 103-105.

Kurbanov, R. (2022). *Banklar kapitallashuv darajasini oshirishning dolzarb masalalari. Economics and education*, 23(4), 96-101.

Omonov A.A. (2008) *Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun bajarilgan dissertatsiya avtoreferati*. –T.: BMA,

36 b.

*Кисилев В.В. (1997) «Управление банковским капиталом» Москва, «Экономика», с 18.*

*Коробова Г.Г. (2015) Банковское дело: Учебник. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Магистр, Инфра-М., -592 с.*

*Ловрушина О.И. (2016) Банковское дело. Под.ред. проф. О.И.Ловрушина – М.: «КноРус», с 800.*

*Усоскин В.М. (2014) Современный коммерческий банк: Управление и операции. Изд.4, стереотип.– М.: «Ленанд», с. 328.*